



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AKKREDITLASH MILLIY TIZIMINI O'RGANISH

Yaxshiyeva Nigina Akrom qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, 1-kurs magistranti

E-mail: nnniginayaxshiyeva@gmail.uz; Tel: +998770059703

Annotatsiya

Ushbu maqolamda bugungi kunda faoliyat olib borayotgan Akkreditatsiya organi haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Maqolamda Akkreditatsiya tizimining faoliyati, tashkiliy tuzulmasi haqida batafsil tushunchalar mavjud. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlar sifati tizimi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun bizda sertifikatlashtirish va standartlashtirish hamda ularni akkreditsiyalash ishlari olib boriladi. Akkreditatsiya tizimining faoliyati, tashkiliy tuzulmasi haqida batafsil tushunchalar mavjud. O'zbekiston akkreditatsiya markazining ustuvor vazifalari va faoliyat yo'nalishlari haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Akkreditatsiya, xavfsizlik, sifat, akkreditatsiya tizimi, sinov laboratoriyalari, sertifikatsiyalashtirish, qiyoslash, kalibrlash.*

Аннотация

В данной статье представлена информация об Органе по аккредитации, который действует сегодня. Статья содержит детальное понимание работы и организационной структуры Системы аккредитации. Система качества продукции играет важную роль в Республике Узбекистан. Поэтому мы проводим сертификацию и стандартизацию и их аккредитацию. Имеются подробные представления о деятельности и организационной структуре системы аккредитации. Также была представлена информация о приоритетных задачах и направлениях деятельности Аккредитационного центра Узбекистана.

Ключевые слова: *Аккредитация, безопасность, качество, система аккредитации, испытательные лаборатории, сертификация, сличение, калибровка.*

Annotation

This article provides information about the Accreditation Body operating today. The article contains detailed information about the activities and organizational structure of the Accreditation System. The product quality system plays an important role in the Republic of Uzbekistan. Therefore, we carry out certification and standardization, as well as their accreditation. There are detailed information about the activities and organizational structure of the Accreditation System. Information is also provided about the priority tasks and areas of activity of the Accreditation Center of Uzbekistan.

Keywords: *Accreditation, safety, quality, accreditation system, testing laboratories, certification, comparison, calibration.*





Xalqaro miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanib, ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida hayot darajasi ko'tarilib borayotgan hozirgi davrda iste'mol bozoridagi mahsulotlar va xizmatlarning sifati va xavfsizligi masalalarining dolzarbligi doimo oshib bormoqda. Bu jarayonda nafaqat bevosita iste'molga tayyor mahsulotlar va xizmatlarga e'tibor qaratishimiz lozim, balki ular hayot siklining barcha bosqichlari — yaratish, ishlab chiqish, saqlash, tashish, sotish va yo'q qilish, sifati va xavfsizligining ta'minlanishi bo'yicha nazoratni olib borishimiz kerak.

Xavfsizlik masalasi inson hayoti va sog'ligini himoya qilish bilan birga, atrof-muxit himoyasini ham o'z ichiga oladi. Xalqaro amaliyotda qabul qilingan atamaga ko'ra, **xavfsizlik** — bu zarar yetkazish mumkinligi bilan bog'liq, yo'l qo'yilmagan xavfning yo'qligi, **sifat** esa — mavjud xarakteristikalar majmuasining talablarga muvofiqligi darajasidir.

Xavfsizlik va sifat talablari ko'rilayotgan ob'ektga nisbatan ma'lum bir qoidalarni o'rnatish, texnik ko'rsatkichlarni me'yorlash orqali o'rnatiladi. Qoidalar va me'yornlarni o'rnatish standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 24 apreldagi 349-sonli qaroriga asosan akkreditatsiya bo'yicha ishlarni olib borish O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DUKga (keyingi o'rinlarda O'zbekiston akkreditatsiya markazi deb ataladi) yuklatilgan. Bu qarorda akkreditsiyalash organlarining vazifalari, faoliyuat yo'nalishlari va ularning huquqiy vakolatlari ham keltirib o'tilgan.

O'zbekiston akkreditatsiya markazining ustuvor vazifalari va faoliyat yo'nalishlari:

3. muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazishda akkreditatsiya jarayonining betarafligi va xolisligini ta'minlagan holda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;

4. Akkreditatsiya bo'yicha Osiyo-Tinch okeani hamkorligiga (ARAS), Laboratoriyalar akkreditatsiyasi bo'yicha xalqaro tashkilotga (ILAC) va Akkreditatsiya bo'yicha xalqaro forumga (IAF) to'laqonli a'zo sifatida kirish;

5. akkreditatsiya milliy tizimini xalqaro normalar va mezonlarga muvofiq doimiy ravishda rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, ISO/IEC 17011 xalqaro standarti talablariga rioya qilish;

6. akkreditatsiya tartib-taomillariga taalluqli zarur axborotni, shu jumladan, o'zining rasmiy veb-sayt orqali erkin olish imkoniyatini yaratish;

7. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida akkreditatsiya bo'yicha ishlar natijalarining xorijiy mamlakatlar tomonidan e'tirof etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralar ko'rish;



8. akkreditatsiyadan o'tkazilgan tashkilotlar va ularning akkreditatsiya sohasi to'g'risidagi ma'lumotlar bazasining shakllantirilishi va dolzarb holatda saqlanishini, shuningdek, tegishli axborotning maxfiyligiga rioya qilgan holda jamoatchilikning ulardan foydalanishini ta'minlash.

Ushbu qarorda muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish jarayonining betarafligi va ularni adolatli oqilonaligini ta'minlagan holda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik belgilab o'tilgan.

Akkreditlash tizimi – akkreditlashni amalga oshirish uchun protsedura va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

Tizimning qonuniy hujjatlariga 2006 yil 17.07da Adliya Vazirligi tomonidan 1596-raqam bilan ro'yxatga olingan "Sertifikatlashtirish sohasidagi nazorat idoralari, bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralari, sinov o'lchash laboratoriya markazlarni akkreditlash qoidalarini" taalluqli.

Tizimda "akkreditatsiya" atamasi "o'rnatilgan talablarga mahsulotlar, xizmatlar, xodimlar va sifat tizimining muvofiqligini baholash va tasdiqlash bo'yicha muayyan ishlarni bajarish uchun huquqiga egaligini rasman tan olish" deb ta'riflangan. Akkreditlashtiruvchi idora bu "o'rnatilgan talablarga mahsulotlar, xizmatlar, xodimlar va sifat tizimining muvofiqligini baholash va tasdiqlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun rasmiy vakolat beruvchi, davlat boshqaruv idorasidir. Akkreditlashtirish bo'yicha Kengash bu "o'tkazilgan akkreditlash natijalari bo'yicha qaror qabul qiluvchi milliy akkreditlash tizimining rahbariy idorasi". Akkreditlash sohasi, bu "Muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha aniqlangan faoliyat sohasida muayyan ishlarni, ya'ni akkreditlashga taqdim qilingan va berilgan arizani bajarish". Tizim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

milliy darajada tizimni tan olish;

o'zining qoida va protseduralarining mavjudligi;

akkreditlashtirish ob'ektlarining ishchi holati masalalari va xorijiy va xalqaro akkreditlash tizimlari bilan munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha tizimini takomillashtirish;

tizimda barcha yuridik va jismoniy shaxslarni qatnashishiga imkoniyatlar mavjudligi;

tizim a'zolarining layoqatliligi, xodimlarmalakasining etarliligi, ularni vakolatlari hamda texnikaviy vositalar bilan ta'minlash;

akkreditlash natijalari va protseduralarning xolisligi, adolatsiz qaror va kamsitishlar (haq-huquqlarini chegaralash)ning mavjud emasligi;

tizimda o'rnatilgan qatnashchilar yoki barcha qiziquvchilarga munosabati bo'yicha tayyorligi:

akkreditlash natijalarini yuridik yoki jismoniy shaxslar ta'sirlaridan xoli ekanligi;

qarorlarni qabul qilish va ushbu tamoyillarga rioya qilish uchun tizimda rahbarlarning javobgarligi;



tizim tuzilmasining ma'qulligi va akkreditlash protseduralari xarajatlarini kamaytirish;

akkreditlash ob'ektlari haqidagi, tijorat qiziqishiga taalluqli ma'lumotlarning maxfiyligi;

akkreditlashtirishning barcha qatnashchilari uchun tekshirish va baholash usullarining ochiqqligi va maqbulligi.

Tizim xalqaro akkreditlashtirish tizimlari bilan kelishuv asosida o'zaro faoliyat olib boradi.

Akkreditlashtirishning maqsadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: mahalliy mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlar xavfsizligi, sifati va raqobatbardoshligini oshirish;

xalqaro kelishuvlarda texnikaviy to'siqlarni bartaraf etish;

sinov laboratoriyalari, qiyoslash va kalibrlash bo'yicha laboratoriyalar, nazorat va sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, metrologik xizmatlar va standartlashtirish bo'yicha xizmatlar faoliyatlari natijalarini xalqaro tan olinishini ta'minlash va texnikaviy layoqatlilikini oshirish.

Akkreditlashtirish vazifalari bo'lib me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq jismoniy shaxslar va tashkilotlar faoliyatining huquqiy rasman tasdiqlash hisoblanadi. Tizimda akkreditlashtirish ob'ektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

sinov laboratoriyalari;

qiyoslash va kalibrlash laboratoriyalari;

mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar;

menejment tizimlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar;

nazorat idoralari;

yuklashdan oldin inspeksiyasi bo'yicha maslahat firmalar;

sifat bo'yicha ekspert-auditorlar.

Majburiy akkreditlashtirish ob'ektlariga qonunchilik faoliyatida amalga oshiriluvchi boshqariladigan sohalar kiradi.

Sertifikatlashtirish, standartlashtirish, metrologiya, sinash, nazorat, kalibrlash sohalarida o'zining faoliyati natijalarini xalqaro tizim darajasida va tizim qoidalari bo'yicha ixtiyoriy tartibda akkreditlangan kelishuvlar bo'yicha tan olinishga erishuvchi ob'ektlar bo'lishi mumkin.

Birga qo'shiluvchi faoliyatlar, ya'ni tutash faoliyatlar, ikki va undan ortiq akkreditatsiya sohalar, ushbu sohalar bo'yicha ob'ektlarning barchasi akkreditlanishi lozim. Bunda akkreditlash bir vaqtning o'zida barcha talab qilingan sohalar yoki akkreditlash tartibiga qo'shimcha sohalarida bosqichma-bosqich o'tkazilishi mumkin.

Akkreditlashtirish milliy tizimi tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

akkreditlashtirish bo'yicha kengash;

akkreditlashtirish bo'yicha idora ("O'zstandart" agentligi);

ilmiy-uslubiy markaz (SMSITI);






akkreditlashtirish ob'ektlari;

akkreditatsiya bo'yicha ekspert-auditorlarga baholovchilar.


Akkreditlashtirish milliy tizimning tashkiliy tuzilmasi 1-jadvalimizda keltirilgan. Akkreditlashtirish bo'yicha kengash milliy darajada va davlat boshqaruv idoralari vakillari, akkreditlashtirish ob'ektlari hamda ishlab chiqaruvchilar, mahsulot iste'molchilari, tekshirish va nazorat ob'ektlari va o'lchash vositalaridan foydalanuvchilar, shuningdek, boshqa qiziquvchi tashkilotlardan tarkib topgan.

1-jadval





Akkreditlashtirishning qonuniy va me'yoriy asoslari hamda bazasi 1-rasmda keltirilgan.



Akkreditlashtirish milliy tizimi tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- akkreditlashtirish bo'yicha kengash;
- akkreditlashtirish bo'yicha idora ("Akkreditatsiya markazi" DUK);
- ilmiy-uslubiy markaz (Standartlar instituti);
- akkreditlashtirish ob'ektlari;
- akkreditatsiya bo'yicha ekspert-auditorlar (baholovchilar).